

**FARG‘ONA DAVLAT UNEVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil. 05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
QORAQALPOG‘ISTON BO‘LIMI QORAQALPOQ GUMANITAR
FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

NZAMATDINOVA DILFUZA KOPTILEUOVNA

**QAHRAMONLIK DOSTONLARIDA TURG‘UN O‘XSHATISHLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq,
turkman, qirg‘iz tillari misolida)
10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Nzamatdinova Dilfuza Koptileuovna

Qahramonlik dostonlarida turg'un o'xshatishlar lingvokulturologik
xususiyatlari (qoraqalpoq, o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz tillari misolida)..... 3

Нзаматдинова Дилфуза Көптилеуовна

Лингвокультурологические особенности устойчивых сравнений в
героических дастанах (на материале каракалпакского, казахского,
узбекского, киргизского и туркменского языков)..... 25

Nzamatdinova Dilfuza Koptileuovna

Linguoculturological features of stable (constant) comparisons in heroic
dastans (on the material of karakalpak, kazakh, uzbek, kyrgyz and turkmen
languages)..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**FARG‘ONA DAVLAT UNEVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil. 05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
QORAQALPOG‘ISTON BO‘LIMI QORAQALPOQ GUMANITAR
FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**NZAMATDINOVA DILFUZA KOPTILEUOVNA
QAHRAMONLIK DOSTONLARIDA TURG‘UN O‘XSHATISHLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
(qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq, turkman, qirg‘iz tillari misolida)**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD\Fil924 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi www.fdu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Najimov Pertdebay Aymanovich
filologiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Umarova Nargiza Rustamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Paluanova Xalifa Daribaevna
filologiya fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

Urganch Davlat Unversiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «16» may soat 19.00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «03» may kuni tarqatildi.
(2023 yil «03» may daqi 11 raqamli feestr bayonnomasi).



Sh.M.Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filol.f.n., professor

A.B.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asr oxirida til birliklarini millat madaniyati bilan bog'liq o'rganadigan lingvomadaniyatshunoslik nomli yangi til sohasi paydo bo'ldi. Lingvomadaniy sohaning asosi markazida inson bo'lib, unda milliy madaniyatga ega bo'lgan barqaror qadriyatlar, urf-odatlar, xalqning milliy qarashlari bilan bog'liq jihatlari ularning asrlar davomida o'sha xalq tilidagi turg'un so'zlarida saqlanib, o'z aksini topadi. Bu bo'yicha lingvistikada tilning o'z o'rnini, milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan bog'liq holda bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Dunyo lingvistikasida til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlari va u bilan bog'liq boshqa masalalar ham antik davr olimlarini qiziqtirib keldi. Lekin tilshunoslikning bir sohasi sifatida qaralishi XIX asr oxiriga kelib lingvistlarning tarixiy-qiyosiy, milliy-madaniy xususiyatlarini ajratish orqali yuzaga keldi. XX asr oxiri XXI asr boshida tilshunoslikda antropologik xususiyatlar insonning pragmalingvistik, kognitiv tabiati va milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog'liq tahlil qilishga e'tibor qaratildi. Lingvistik tadqiqotlar narsani o'xshatishda, birinchi navbatda, tadqiqot obyekt sifatida til birliklarida muayyan millatning dunyoni bilishiga nazar solishadi. Shu nuqtai nazardan turg'un o'xshatishlar til birligi sifatida qaraladi, chunki turg'un o'xshatishlar har qanday millatning ko'p asrlar davomida dunyoni bilishdagi ma'lumotlar yig'indisi sifatida va uzoq davom etgan izlanishlar natijasida shakllanadi.

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab ona tilimizning maqomi, kelajagi masalalariga katta e'tibor qaratilib, tilga milliy qadriyat va ma'naviy mezonlardan biri sifatida munosabat qilina boshladi. Hozirgi qoraqalpoq tilshunosligi, shu jumladan leksikologiya sohasining oldiga zamonaviy rivojlangan tamoyillarga yo'naltirilgan yangidan-yangi tadqiqotlar yaratish vazifasi qo'yilmoqda. Turg'un o'xshatishlarning leksik-semantik modellarini tadqiq qilish shunday vazifalar qatoriga kiradi. Bu tilimizni milliy ong va milliy tafakkur tushunchasi sifatida lingvomadaniy jihatdan o'rganish, uninga lohida o'ziga tortishini ko'rsatishga qaratilgan tadqiqotlarni ham takomillashtirishni talab qiladi. Turg'un o'xshatishlarni o'rganishda semantik-struktur va funksional-pragmatik munosabatlarining zarurati yuzaga keladi. Til va madaniyat bilan bog'liq tadqiqotlar keng ko'lamlı empirik materiallarning tizimli tavsifining mustahkam asosiga tayanishi shart. Dissertatsiyada shu kabi tavsif fragmenti tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishda yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi qarori, 2017-yil 22-dekabr va 2018-yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga murojaatnomalari, 2017-yil 12-yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob o'qish va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish

to'g'risida»gi F-4789-sonli farmoyishi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-498-sonli «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ 2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish, moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2017-yil 24-maydagi PQ 299-sonli «Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda shu faoliyat bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda turli tizimli tillarda turg'un o'xshatishlar masalalarining o'rganilishi bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. 1931-yil mashhur tilshunos E.D.Polivanov¹ birinchilardan bo'lib bu masalaga diqqat qaratgan. S.I.Ojegov² ko'chma-obrazli tipdagi frazeologizmlar bilan bog'liqlik jihatdan tadqiq qilgan. M.V.Lomonosov³, V.I.Dal⁴ kabi olimlar turg'un o'xshatishlarni rus tilining lug'at fondi asosida o'rganish lozimligini ta'kidlaganlar. M.I.Cheremisina⁵ fikricha, turg'un o'xshatishlarni o'rganishda lingvistik eksperiment olib borish yaxshi natija beradi. M.N.Sudoplatova⁶ o'xshatishli turg'un birikmalar ma'noga egaligi, komparativ frazeologiyada esa analitik uyg'unlik borligi haqidagi fikrlarini tadqiqot ishlarida ham uchratishimiz mumkin.

Mazkur masala turkiy tillar misolida 1960 - yillardan keyin o'xshatishlarga bog'liq dastlabki ilmiy ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. A.T.Kaydarovning uyg'ur tilidagi⁷, S.M.Ibragimovning tatar tilidagi⁸, K.Babanovning turkman tilidagi o'xshatishlarga⁹ bag'ishlangan maqolalari e'lon qilindi.

E.Ishaqovning «Tashbeh»¹⁰ nomli maqolasida, R.Qo'ng'urovning «O'zbek tilining tasviriy vositalari»¹¹ kitobida, N.Nazarovning «Qutadg'u bilig» asaridagi o'xshatishlar tadqiq qilingan maqolalarida¹² o'zbek tilidagi o'xshatishlar tahlil qilingan.

¹Античные теории языка и стили. ОГИЗ, - М.-Л., 1936. – 384 с.

²Ожегов С.И. О структуре фразеологии (в связи с проектом фразеологического словаря русского языка) // Лексикографический сборник. – вып. II. – М., 1957. – С. 47-48.

³Словарь Академии Российской [электронный ресурс]. – Вь Санктпетербург: при Императорской Академии Наук., 1989. –1994 с.

⁴Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка [Электронный ресурс]: В 4 т. – Спб.: Тип. М.О. Вольфа, 1863-1866. – 812 с.

⁵Черемисина М.И. Сравнения-фразеологизмы русского разговорного языка // Русский язык за рубежом. – М., 1967. – №2. – С. 72-77

⁶Судоплатова М.Н. Устойчивые компаративные сочетания и компаративная фразеология // Современная русская лексикография. – Л.: Наука (Ленингр. отд-ние), 1979. – С. 48-61.

⁷ Кайдаров А.Т. Грамматическая характеристика некоторых сравнительно-метафорических выражений в уйгурском языке /сб. Вопросы уйгурской филологии. – Алма-Ата, 1961. С. 26-37.

⁸ Ибрагимов С. Сравнительные конструкции в татарском языке //Вопросы татарского языкознания. – Казань, 1960. С. 248-269.

⁹ Бабанов К. Түркмен тилиндәки мензетлемелер хақында кәбир белликлер / Ученые записи ТГУ им. А.М.Горького. - вып.49 (1). – Ашхабад, 1967. – Б. 72-82.

¹⁰ Исхаков Н. Ташбех // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970.- №4. – Б. 81-84.

¹¹Қўнғўров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент, 1977.– 12 б.

¹²Назаров Н. “Қутадғу билиг” да ташбех //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980.- №3. – Б. 48-50.

M.Mukaramovning nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek adabiy tilidagi o‘xshatishlarning ifoda xususiyatlari tadqiq qilingan¹³.

T.Qongirovning «Қазақ теңеулері»¹⁴ nomli monografiyasida qozoq tilida metafora va o‘xshatish qolipi o‘rtasidagi mushtarak jihatlari va farqlarni qozoq tili materiallari asosida to‘g‘ri ko‘rsatib berilgan.

O‘zbek tilshunosi N.Mahmudov¹⁵ o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning til va nutqqa munosabati va ularning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

D.Xudaybergenova¹⁶ «Семантический и стилистический анализ конструкции уподобления в узбекском языке» nomli dissertatsiya ishida o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni «o‘xshatish asosi sifatdan iborat o‘xshatishlar», «o‘xshatish asosi fe‘ldan iborat o‘xshatishlar» deb ikki guruhga ajratib, ularni semantik va uslubiy tahlil qilgan.

F.Usmanov «O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi» nomli dissertatsiyasida turg‘un o‘xshatishlar haqida atroflicha so‘z yuritadi.

Qoraqalpoq tilshunosligida o‘xshatishlar o‘tgan asrning 1990-yillaridan keyin o‘rganila boshlandi. A.Bekbergenov, M.Dawletov, A.Najimovning ishlarida bu masala bilan bog‘liq ba‘zi fikrlar keltirilgan.

A.Najimov o‘z tadqiqotida o‘xshatishlarni qo‘shma gaplarga bog‘lab o‘rgangan. Bunda qo‘shma gaplarning bir turi hisoblangan qiyosiy ergashgan qo‘shma gaplarning o‘xshatishga qiyoslashga asoslanishini qayd etadi¹⁷.

Qoraqalpoq tilidagi o‘xshatishlar maxsus tarzda P.Najimov tomonidan tadqiq etildi. Bu bo‘yicha u nomzodlik ishini himoya qilib, monografiya va maqolalar e‘lon qilgan¹⁸.

Mazkur dissertatsiya ishining yuqoridagi mavjud tadqiqotlardan farqi shundaki, turli tizimli tillardagi turg‘un o‘xshatishlarning ifoda etilishi, xususan, ularning umumiy va qiyosiy-tipologik aspektidagi lingvistik xususiyatlari, pragmatik, kognitiv, leksik va morfologik sathlarda ifodalanishining mushtarak va farqli jihatlari aniqlash masalalari o‘rganilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqotishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida «Hozirgi qoraqalpoq tilshunosligining dolzarb masalalari» mavzusida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli tizimdagi tillardagi qahramonlik xalq dostonlarida turg‘un o‘xshatishlarning umumiy jihatlari va semantik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

¹³Мукаррамов М. Сравнения и способы их выражения в современном узбекском языке: Сравнения в татарском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.– Ташкент, 1973. – 21 с.

¹⁴Қоңыров Т. Қазақ теңеулері. – Алматы: Мектеп, 1978.

¹⁵Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. - № 3.– Б. 19-24.

¹⁶Худайбергенова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкции уподобления в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.– Ташкент, 1989. – 21 с.

¹⁷Нажимов А. Ҳазирги қарақалпақ тили синтаксиси. (Қоспа гәплер бойынша практикум-қолланба). – Нөкис, 1990.

¹⁸Нажимов П. Структурно-семантические особенности сравнения в каракалпакском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.– Нукус, 1994. – 20 с.

Tadqiqotning vazifalari:

turkiy qahramonlik xalq dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarning o'rganilish bosqichlarini kuzatish;

tilshunoslikda turg'un o'xshatishlar va frazeologizmlarning o'xshashlik va farqlarini aniqlash;

turkiy qahramonlik xalq dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlarini aniqlash;

turli til tizimida turg'un o'xshatishlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish;

turkiy qahramonlik xalq dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarning shakl va mazmun munosabatini o'rganish;

turkiy xalq dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarning lingvomadaniy tomonlarini aniqlash;

turkiy xalq dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash;

turkiy xalq dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarning kognitiv xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot ishining obyekt. Qoraqalpoq, o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz qahramonlik dostonlaridagi turg'un o'xshatishlar tadqiqotning obyektini tashkil etadi.

Tadqiqot ishining predmeti. Turkiy xalq qahramonlik dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarning o'xshashlik va farqlari, ularning o'zaro ma'no bog'liqliklari hamda lingvomadaniy tahlili tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy-tadqiqot maqsadiga muvofiq umumiy tilshunoslikning tadqiq yo'nalishidagi zamonaviy semantika va leksikologiya, turkiy tillar va adabiyoti tarixiga oid ilmiy ishlar, komponent va qiyosiy tahlil, funktsional-semantik va struktur tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq va qardosh turkiy tillardagi turg'un o'xshatishlarning struktur, leksik-semantik xususiyatlari lingvistik oppozitsiyalar va ularning leksikologiyada aks etishi, turg'un o'xshatishlarga oid ilmiy-nazariy qarashlarga asoslanib isbotlangan;

xalq qahramonlik dostonlaridagi turg'un o'xshatishlar komponentlarining ishtiroki va tuzilishiga qo'ra ikki hamda ko'p komponentli turg'un o'xshatishlar, struktur xususiyatlariga ko'ra to'liq turg'un hamda to'liq bo'lmagan turg'un o'xshatishlar kabi turlari aniqlangan;

turli tizimli tillarda turg'un o'xshatishlarning shakl va ma'no munosabati, sinonimiya, antonimiya va polisemiya orqali keng imkoniyatlarga ega ekanligi dalillangan.

pragmatik nuqtai nazardan turkiy qahramonlik xalq dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarni noorganik dunyo hamda organik dunyo kabi guruhlariga ajratilib, pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu sath va tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan munosabati to'g'risida hamda matnning semantik tuzilishida ishtirok etadigan pragmatik mazmun turlari mazkur guruhlar asosida keltirilgan misollar orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

o'tkazilgan tadqiqot natijalari hozirgi qoraqalpoq tilining leksik tizimini tahlil qilishda ilmiy va amaliy yondashuvlardan biri sifatida qo'llanilishi mumkinligi isbotlab berilgan; qoraqalpoq tilidagi turg'un o'xshatishlar bo'yicha umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosalar «Qoraqalpoq tili leksikologiyasi», «Uslubiyat», «Media tili va uslubi» fanlarini o'qitishda o'quv-uslubiy manba sifatida tavsiya qilingan; tadqiqot materiallari leksikologiya, o'quv qo'llanmalari, izohli va ko'p tilli lug'atlarni yaratishda ma'lumot va manba sifatida xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo'llanilgan usullar, unda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va xulosalarning komponent tahlil, qiyosiy tahlil, funksional-semantik, tarixiy-tavsifiy metodlar orqali asoslanganligi, nazariy mulohaza va takliflarning amaliyotda keng qo'llanilganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan dalillanadi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Turg'un o'xshatishlarning semantik xususiyatlari, o'xshashlik, umumiy qiyoslash orqali tadqiq qilish hamda differentsial farqlarini diaxron va sinxron o'rganish kelgusida turkiy xalqlar dostonlarini o'rganishda ilmiy manba sifatida foydalanish, shuningdek qadim davrlardagi qoraqalpoq adabiy tilining paydo bo'lish va rivojlanish yo'llarini ochib berish imkonini yuzaga keltiradi.

Turkiy xalqlar dostonlaridagi turg'un o'xshatishlarning leksikografik parametrlarini aniqlash, xalq dostonlarining lug'atini tuzishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya materiallari oliy ta'lim muassasalari uchun «Hozirgi qoraqalpoq tili», «Leksikologiya», «Lingvokulturologiya», «Lingvofolkloristika», «Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi» fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari turg'un o'xshatishlar bo'yicha tadqiqot olib borishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Turkiy xalq qahramonlik dostonlarida turg'un o'xshatishlarini tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Turkiy xalq qahramonlik dostonlarida turg'un o'xshatishlari ahamiyatini aniqlash natijalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016 yillarda bajarilgan FA-F1-G002 raqamli «Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish» va FA-A1-G006-raqamli «Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari qo'lyozma nusxalarini tekstologik tahlil qilish va nashrga tayyorlash (3-jild)» mavzusidagi loyihani amalga oshirishda, ayniqsa turkiy xalqlar dostonlaridagi o'xshatishlarning turg'unlik belgilari, turg'un o'xshatishlar va

frazeologizmlarning o‘xshashlik va farqlari, lingvistik o‘rni, tasnifiy xususiyatlari, qiyoslash va komponent tahlil asosida o‘rganildi va tadqiqotda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2021-yil 27-oktyabrdagi 317/1 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada, turkiy xalqlar dostonlaridagi turg‘un o‘xshatishlarning adabiy tilga xos uslubiy qo‘llanilishi asosida yozilishi ta‘minlangan;

turkiy tillar hususan qoraqalpoq tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning badiiy matnda qo‘llanilish xususiyatlari, semantik, kognitiv va pragmatik vazifalarini keng ommaga targ‘ib etish bilan bog‘liq materiallar Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasining «Erkin fikr» hamda «Tilga e‘tibor – elga e‘tibor» radioeshittirishlari orqali keng jamoatchilik e‘tiboriga havola etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2021-yil 22-oktyabrdagi 01-02/497 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada, turkiy tillar xususan qoraqalpoq tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy tahlili va badiiy matnda qo‘llanilish xususiyatlari keng ommaga targ‘ib etish orqali ko‘rsatuv va eshittirishlarning madaniy-ma‘rifiy ahamiyatining oshirilishiga erishilgan;

qoraqalpoq xalq dostonlaridagi turg‘un o‘xshatishlarni o‘rganish orqali ular ma‘nosining kengayishi va tilda faol qo‘llanilishi natijasida jamiyatimizda milliy qadriyatlar, urf-odatlarining saqlanishi va rivojlanishidagi o‘rni dalillandi va tahliliga oid ilmiy ma‘lumotlar olishda samarali foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2021-yil 22-oktyabrdagi 4-04/1614 raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada, hozirgi qoraqalpoq tilida turg‘un o‘xshatishlarning lug‘aviy ahamiyatini keng xalq ommasiga targ‘ib etib, o‘qitish ishlarida darslar mazmunini boyitish imkoniyatini berdi va yoshlarni vatanparvarlik ruhida, milliy-xuquqiy ong va tafakkurini rivojlantirishda katta yordam ma‘lumotlar berishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy konferentsiyada, jumladan: 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida ma‘ruza shaklida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusiga oid jami 14 ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 maqola, shundan respublika jurnallarida 9 tezis va xorijiy jurnallarda 4 tezis va maqola e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob ,xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.Ishning hajmi 130 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga

joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «Turg'un o'xshatishlarning ilimiy- nazariy asoslari» deb nomlanib, u uch qismdan iborat. Bobning «Tilshunoslikda turg'un o'xshatishlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari» deb atalgan birinchi qismida tilshunoslikda o'xshatishlar va turg'un o'xshatishlarning paydo bo'lishi, uning rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritilgan. Turg'un o'xshatishlarning nazariy asoslari, uning tabiati o'rganilgan. L.A.Lebedeva, V.V.Vinogradova, V.M.Ogoltseva, T.Qongirov, N.Maxmudov, D.S.Xudaybergenova, SH.Safarov, E.Berdimuratov, SH. Abdinazimov, P.Nadjimov kabi rus tilshunosligi, shuningdek qozoq, o'zbek, qoraqalpoq tilshunos olimlarining o'xshatishlar va turg'un o'xshatishlarga doir ilmiy mulohazalari umumlashtirilib, ularga munosabat bildirildi.

Birinchi bobning ikkinchi qismi «**Turli tizimdagi tillarda turg'un o'xshatishlarning o'rganilish tarixi**» deb ataladi. Tilshunoslikda turg'un o'xshatishlarni o'rganishga bag'ishlangan ancha ishlar mavjud. Turkiy tilshunoslikda ham turg'un o'xshatishlarni o'rganish bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan T.Qongirovning «Қазақ теңеулері» nomli monografiyasi qozoq tilida o'xshatish qolipining tuzilish yo'llari, semantik-grammatik tabiati, sintaktik qurilishi, leksik-semantik guruhlari, ularning semantik-stilistik xususiyatlarini aniqlash masalalariga bag'ishlangan. Muallif mazkur ishida metafora va o'xshatish qolipi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni qozoq tili materiallari asosida to'g'ri ko'rsatib bergan.

Mazkur muallifning «Структурно-семантическая природа сравнения в казахском языке» nomli monografiyasida yuqorida ta'kidlangan ishidagi fikrlari yanada rivojlantirilib, qozoq tilidagi o'xshatishlarning semantik-struktur tabiati, o'xshatishlarning qozoq va boshqa tillarda ifodalanish qonuniyatlari aniq misollar yordamida keng tahlil qilingan. Muallif o'xshatishni hosil bo'lish usullari, ularning semantik va struktur tiplariga keng to'xtalib o'tgan. O'xshatishning ushbu ko'rsatilgan tiplari o'z struktur-semantik va funktsional xususiyatlariga ega.

O'zbek tilshunosligida bu sohada bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Olim N.Mahmudovning «O'xshatishlar – obrazli fikrlash mahsuli» nomli maqolasida o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlarning til va nutqqa munosabati, shuningdek, ularni «milliy obrazli fikrlash tarzini ko'rsatuvchi birliklar» sifatida izohlab, bunday obrazli birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish masalasi qo'yilganligi bilan muhim sanaladi. U bu yo'nalishdagi qarashlarini o'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'atiga yozgan so'z boshida yanada boyitgan.

D.Xudaybergenovning nomzodlik dissertatsiyasi «Семантический и стилистический анализ конструкции употребления в узбекском языке» deb nomlanadi. Muallif bunda o'zbek tilidagi o'xshatishlarni «o'xshatish asosi sifatdan iborat o'xshatishlar», «o'xshatish asosi fe'ldan iborat o'xshatishlar» deb ikki guruhga ajratib, ularni semantik va uslubiy tahlil qilgan.

Qoraqalpoq tilshunosligida o'xshatishlar o'tgan asrning 1990 yillaridan keyin o'rganila boshlandi. A.Bekbergenov, M.Dawletov, A.Najimovning ishlarida bu masala bilan bog'liq ba'zi fikrlar keltirilgan.

A.Bekbergenov o'xshatishlarga badiiy vositalar sifatida alohida yondashadi va qoraqalpoq tili misollari yordamida asoslab beradi.

M.Dawletov ham qo'shma gaplarga oid ishida o'xshatish gapli qo'shma gaplar haqida fikr yuritib, o'xshatishlarga doir qarashlarini keltirib o'tadi.

Qoraqalpoq tilshunosligida o'xshatishlarga bog'ishlangan ishlarda faqat o'xshatishlarga oid qisqacha ma'lumot berib o'tilgan.

A.Najimov ishida o'xshatishlar qo'shma gaplarga bog'lab o'rganilgan. Bunda qo'shma gaplarning bir turi hisoblangan qiyosiy ergashgan qo'shma gaplarning o'xshatishga qiyoslashga asoslanishini qayd etadi.

Qoraqalpoq tilidagi o'xshatishlar maxsus tarzda P.Najimov tomonidan tadqiq etildi. Bu bo'yicha u nomzodlik ishini himoya qilib, monografiya va maqolalar e'lon qilgan.

Mazkur ishlarida P.Najimov qoraqalpoq tilidagi o'xshatishlarning struktur-semantik xususiyatlarini ochib bergan. U o'xshatishlarning ifodalanish yo'llarini morfologik, sintaktik, morfologik-sintaktik, leksik-grammatik va intonatsiya usullari orqali aniqlagan. O'xshatishlarning semantik-stilistik xususiyatlarini aniqlashda esa metafora, giperbola, litota va epitet usullaridan foydalangan. Semantik jihatdan o'xshatishlarni katta uch guruhga ajratib tahlil qilgan:

1. Inson bilan bog'liq qo'llaniladigan o'xshatishlar;
2. Mifologik va og'zaki adabiyot qahramonlari bilan bog'liq o'xshatishlar;
3. Atrof-muhit bilan bog'liq qo'llaniladigan o'xshatishlar.

Birinchi bobning uchinchi qismi «**Turg'un o'xshatishlar va frazeologizmlarning o'xshashlik hamda farqlari**» deb nomlanib, unda frazeologizm va turg'un o'xshatishlar bo'yicha dunyo tilshunosligidagi nazariy fikrlar keltirilgan hamda ularning umumiy va farqli jihatlari tahlil qilingan. Umumiy tomonlari:

1. Tilimizda yakka leksik birliklar sifatida tayyor tarzda shakllangan so'z birikmalari.
2. Ma'no jihatdan obrazlilikka ega.
3. Komponentlari shakllangan turg'un o'ringa ega.
4. Qismlarga ajratib bo'lmaydi.
5. Boshqa tillarga so'zma so'z o'girish mumkin emas.
6. Obyektiv turmushning har qanday hodisalari bilan bevosita bog'liq yaratiladi.

Farqlari:

Frazeologizm: kontekst tarkibida gap bo'laklariga ajratilmasdan umumiy bir bo'lak sifatida qo'llaniladi.

Gapda bir so'z turkumi doirasida ishtirok etadi.


Turg'un o'xshatish:

1. Turg'un o'xshatishlarda ikki tushuncha birgalikda qiyoslanadi.
2. Ikki predmetga mushtarak belgi mavjud bo'ladi.
3. Turg'un o'xshatishlar har xil yordamchi vositalar (qo'shimchalar, yordamchi so'zlar, so'zlar) bilan ifodalanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Turkiy qaharmonlik xalq dostonlarida turg'un o'xshatishlarning lisoniy xususiyatlari**» deb nomlangan bo'lib, u ikki

qismni o'z ichiga oladi. Bobning «**Turli tizimdagi tillarda turg'un o'xshatishlarning struktur tahlili**» deb nomlangan birinchi qismida turg'un o'xshatishlarning tuzilishi tahlilga tortildi. Mavjud materiallarni yig'ib, turg'un o'xshatishlarning struktur formulasini quyidagicha belgilaymiz.

Bunda dastlab

O'xshatishni  Nima bilan o'xshatilmoqda
nima o'xshatilmoqda
nima uchun o'xshatilmoqda (qanday ma'noda)

shundan kelib chiqqan holda quyidagicha nomlashni ma'qul topdik.
« S -Om- T »

S - subyekt,

O - obyekt,

m - modul,

T – o'xshatish asosi.

Turkiy tilli xalqlarda ushbu qoidaga asoslangan misollarni ko'rib chiqamiz:

O'zbek tilida:

Samarqandning *minoriday zing* kiyib, buti selanglab, otning ostiga aymashib, o'n uch mahramini birga olib, Qorajonning qalmiqqa jo'nab borayotgan eri: Qorajonbek yo'lga kirdi, Mahramlarin birga oldi, Chilbir cho'liga yo'l yurdi (Alpomish).

Qoraqalpoq tilida:

Masalan: Bet aldiniñ ajari,

Mısalı on tórt kúnlik ayday,

Sol tariyqa Gulayım,

Belli qayısqa jayday. («Qırıq qız»).

Qozoq tilida:

Қорыққаннан қойдай үркін тура қашты. («Rustem»).

Qirg'iz tilida:

Мурутунун бир талы,

Айбалтанын сабындай.

Мурдутоонун сеңирдей,

Булкушканды жегидей

Көзү көлдүн быткылдай,

Көрүнгөндү жуткандай. («Манас»).

Turkman tilida:

Arslan gibi toruşyńdan. («Go'ro'g'li»).

Biz qoraqalpoq tilida turg'un o'xshatishlarni struktur xususiyatiga ko'ra to'liq turg'un o'xshatishlar va to'liq bo'lmagan turg'un o'xshatishlar deb ikkiga ajratib o'rgandik. Bu o'z navbatida turkiy tilli xalqlarda qo'llanilgan turg'un o'xshatishlarga ham namuna bo'ladi deb o'ylaymiz.

To'liq turg'un o'xshatishlar

Kontekstda to'liq turg'un o'xshatish bo'lishi uchun eng dastlab o'xshatish uchun xos bo'lgan ob'ekt, sub'ekt va o'xshatish asosi to'liq qatnashishi shart. Bunday munosabat o'z navbatida o'xshatilayotgan obraz va belgi o'rtasiga tegishli bo'lishi lozim. Agar kontekstda ob'ekt va sub'ekt yoki ob'ekt va asos sifatida

uchinchi konstruktsiya ishtirok etmasa bu to'liq turdagi turg'un o'xshatish bo'la olmaydi.

Masalan:

Ayday sultw qiz.

Bu misolda

Ay /day



Obyekt

sultw



asos

qiz.



subyekt

Bu ochiq konstruktsiya bo'lib, bunda turg'un o'xshatishlar uchun xos bo'lgan barcha belgilar ishtirok etgan.

O'zbek tilida: *Oydek chiroyli qiz*

Qozoq tilida: *Айдай сулыў қыз*

Qirg'iz tilida: *Айдай сулуу қыз*

Turkman tilida: *Aý ýaly owadan gyz.*

To'liq bo'lmagan turg'un o'xshatishlar

Turg'un o'xshatishlarning ikkinchi turi to'liq bo'lmagan turg'un o'xshatish hisoblanadi.

Bu turdagi turg'un o'xshatishlarda faqat ob'ekt va sub'ekt ishtirok etadi, asos yashirin shaklda bo'ladi. Chunki bu o'xshatishlar kundalik turmushda barchaga ma'lum belgiga ega bo'lganligi bois asos keltirilmasada, ifodaga ega bo'ladi.

Masalan: *Jawrnlari qaqpaqtay, attin basinday, boylari minarday, ju'zleri gu'ldey kabi.*

Jawrnlari



Subyekt

qaqpaqtay



Obyekt

Ushbu misollar keng ifodalilikka ega bo'lib, odam elkasining yirik, yoziq, katta ekanligini tasvirlash maqsadida uni qopqoqqa o'xshatadi. Misolda yirik degan so'z qo'llanilmasada, kishilar ongida u katta ko'rinishda ekanligi anglashiladi.

O'zbek tilida: Bu dudak Xilol bolasi,
Oltinday sochin tolas.

Qozoq tilida: *Кебисиниң өкшеси Буқардың гаўхар тасындай*

Qirg'iz tilida: *Мунарадай зункуйган*
Бой көрө элек экенбиз.

Turkman tilida: *Güyz almasy kibi.*

Bundan tashqari kontekstda qo'llanilgan turg'un o'xshatishlarni komponentlarining ishtiroki va tuzilishiga ko'ra bir komponentli, ikki komponentli va ko'p komponentli turg'un o'xshatishlar deb ajratib o'rganildi.

Bir komponentli turg'un o'xshatishlar

Rustemdey, Bashinarday, Alpamistay, Arislanday kabi ifodalarga ega atamalar bilan faol ishlatiladi. Aslida bu atamalarning ma'nosi o'sha shaxsning qandaydir belgisi, harakati, psixologik holati bilan bog'liq o'xshatiladi. Bunday o'xshatishlar faqat sub'ektga ega bo'ladi.

Masalan:

O‘zbek tilida: Alpomishdek

Qoraqalpoq tilida: Рустемдей

Qozoq tilida: Өгиздей құлжа, аурудан сау ма?

Qirg‘iz tilida: Манасдаыйн

Turkman tilida: Arıslan kibi.

Ikki komponentli turg‘un o‘xshatishlar

Dostonlarda ikki komponentli turg‘un o‘xshatishlar ko‘p uchraydi. Bu struktural jihatdan to‘liq bo‘lmagan turg‘un o‘xshatishlar hisoblanib, u sub’ekt va ob’ektdan iborat bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi belgi aniq, yaqqol ko‘rinib turadi.

Masalan:

O‘zbek tilida: Tishi gavhar durday, Ko‘zi quralayday.

Qoraqalpoq tilida: Kózi ma’shtey, awzı oymaqtay, ju’zi ayday.

Qozoq tilida: Исi жупар аңқыған Булбулдай –ақ сөзі бар.

Qirg‘iz tilida: Өгүз белиндей, Мунарадай зункуйган.

Turkman tilida: Kümüş gibi ak bileg.

Ko‘p komponentli turg‘un o‘xshatishlar

O‘zbek tilida: O‘n besh kunlik yo‘ldagi maysani *obdol talaganday*, *ilon yalaganday* qilib, changini chiqarib, oldi erning o‘tini yeb kelyapti. («Alpomish»).

Qoraqalpoq tilida: *Təbesi quwday ag‘arg‘an, kəzi qurday qızarg‘an*, turıp-jig‘ilg‘an, tasqa su‘ringen, tawg‘a örmelep baratırg‘an bir g‘arrı babanı kórdi deydi. («Er shora»).

Qozoq tilida: *Жанып турған жалындай*, Қубылып турған сағымдай Шабылып Шубар терледі. («Batırlar jırı»).

Qirg‘iz tilida: *Манас баатырдын ажыда ардай сүрү*, алп кара куштай айбаты так ушул өз ишинин тууралыгына көзү жетип, оң иш үчүн бел байлагандыгы менен шартурақлы теңеўлерашкан. («Manas»).

Turkman tilida: *Güyz almasy kibi al ýañagyny dartdy ýyrtdy*. Gargy kibi gara saçymy ýoldy. («Go‘ro‘g‘li»).

Ko‘p komponentli turg‘un o‘xshatishlar dostonlarda ko‘p uchrab, ularning konkret ma’nosini kontekst orqali aniqlash mumkin.

Keltirilgan misollardan turkiy xalqlar orasida qo‘llaniladigan turg‘un o‘xshatishlar deyarli bir-biriga yaqin ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ular faqat strukturasi jihatdan emas, balki semantik jihatdan bir-biriga juda yaqin hisoblanadi.

Dostonlardagi turg‘un o‘xshatishlarni tahlil qilganimizda ikki komponentli va ko‘p komponentli turg‘un o‘xshatishlar bir komponentli turg‘un o‘xshatishlarga nisbatan ko‘p ishlatilganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, qahramonlar ta’rifida ikki komponentli turg‘un o‘xshatishlar ancha ko‘p uchraydi. Bir komponentli turg‘un o‘xshatishlar ko‘p o‘rinlarda doston qahramonlaridan ikkinchi bir qahramonning mardonavor ishlari yoki aft-angorini, xislatlarini qiyoslashda bir komponentli turg‘un o‘xshatishlar qo‘llanilgan. Shu bois ko‘pincha o‘g‘il bolalarni ta’riflashda *Alpamıstay*, qiz bolalarni ta’riflaganda *Tumarıstey* bo‘lsin degan maqsadda o‘xshatishadi. Bu ko‘pgina turkiy tilli xalqlarda turg‘unlashgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi qismi «**Turg'un o'xshatishlarning semantik xususiyatlari**» deb nomlanadi. Unda turg'un o'xshatishlar bir necha tiplarga ajratilgan. Sezgi a'zolariga asoslangan o'xshatish tiplari: sezish va qabul qilish a'zolariga asoslangan o'xshatishlarni qoraqalpoq va turkiy tillarda bir necha semantik guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin. Bu guruhlar o'xshatishning konkret ma'nosidan va uning atrof-muhit bilan bog'liqligidan kelib chiqadi.

1. Birinchi ko'rish turg'un o'xshatishlari – inson atrof-muhit, narsa va hodisalarni ko'radi, shakl,tur, o'lchami, miqdorini ajratadi, ular o'rtasidagi aloqa, harakat, o'xshashlik va farqlarni ko'rib o'rganadi, tadqiq va tahlil qiladi. Ko'rinish beruvchi narsalar yoki hodisalar turidagi obrazlarni paydo qiladi. Bu tipdagi ko'rish turg'un o'xshatishlar xalq og'zaki ijodi,yozma va og'zaki adabiyotlarda juda ko'p uchraydi. Ushbu o'xshatishlar qoraqalpoq va turkiy tillar o'xshatishlar tizimining eng original (asl nusxasi) turidagi semantik guruh sanaladi. Bu esa o'z navbatida o'sha xalqning milliy xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Masalan: Aq jarııqap ku'n tuwdı, at basınday ul tuwdı (Ma'spatsha).

Dostonlarda ko'rish bilan bog'liq turg'un o'xshatishlarni tahlil qilib, ularni quyidagi guruhlarga ajratib o'rganishni ma'qul topdik.

a) ko'rinishi, shakli bilan bog'liq turg'un o'xshatishlar;

b) ish-harakatga bog'liq turg'un o'xshatishlar;

s) ranglar bilan bog'liq turg'un o'xshatishlar.

a) insonning tashqi qiyofasini tasvirlashda qo'llanilgan turg'un o'xshatishlar obrazni yanada jozibali qiladi, tinglovchining e'tiborini tortadi.

Masalan,

O'zbek tilida: Bermasboy bunda Barchin qizini, Cho'llarda sarg'aytib *gulday yuzini*, Yoshtoidirib biylar jodu ko'zini.(«Alpomish»).

Qoraqalpoq tilida: *Jawrınları qaqpaqtay,*

Burımları toqpaqtay,

Awzı sulıw oymaqtay,

Juqa erni qaymaqtay.(«Qırıq qız»).

Qozoq tilida: *Сумбілдей сақал-мурты ширатылған, жауһардай жалтырайды* отыз тісі.(«Rustem»).

Qirg'iz tilida: *Балтыры өгүз белиндей,*

Басканы сырт желиндей.(«Manas»)

Turkman tilida: *Güýz almasy gibi al ýañaklarymy ýyrtaýynmy?* («Go'ro'g'li»). Bu o'rinda odamning qiyofasi, gavidasi, shakli birdaniga ko'zga tashlanadi.

Chiroy, tuyg'u, mehribonlik yoki ularning qarama-qarshi hodisalarini ko'rmasdan anglash qiyin. Bunda adabiy turg'un o'xshatishlarning o'zni katta, chunki adabiy munosabat ko'rinishni kuzatgach turg'un o'xshatishlar yuzaga keladi.

B) ish-harakatga bog'liq turg'un o'xshatishlar

O'zbek tilida: Jallodlar Boysarini ko'rib, otdan tushib, siynasini dog'lab, ikki qo'lini orqasiga bog'lab, boshiga qor-yomg'irday *qamchi tashlab:* -Yur bu yoqqa, - deb turtib hayday berdi.(«Alpomish»).

Qoraqalpoq tilida: *Ash jolbarıstay shabınıp,*

Qupani qalqan jamilip,
Ottay bawiri qamilip («Máspatsha»).

Qozoq tilida: Ат пенен арттарын айдағанда, Ойнақтап ор текедей отырды ырғып. («Rustem»).

Qirg'iz tilida: Башына камчы чабылды,
Тебетей чаңы кагылды,
Тегеректеп он калмак
Бай Жакыпка жабылды. («Manas»).

Turkman tilida: Bir bölek gaza tuwgyn giren gibi, gyryma at saldy. («Gurkut ata»).

v) ranglar bilan bog'liq turg'un o'xshatishlar. Bunda faqat rang haqida fikr yuritilmasdan, rangdagi nozik jihatlar va xususiyatlar ham yoritib beriladi.

O'zbek tilida: G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor,
Ko'ch bilan birgadir bul zamon boylar. («Alpomish»).

Qoraqalpoq tilida: Ballari ayran tu'ygen kelsaptay qip-qizil qarag'an, shalig'ip sharshap seligip uyqilap qalpti.

Turip jig'ilg'an, tasqa syringen, tóbesi quwday ag'arg'an, jası payg'ambar jasına tolg'an, shashi ag'arip bolg'an, tu'yeniń ol ta'repine barsa, bu ta'repi ketedi. («Máspatsha»).

Qozoq tilida: Туған айдай жалтырап, Көзіне қалды көрініп. («Batırlar jıgı»).

Qirg'iz tilida: Канжыгадай кара кан Найзасына жабылды. («Manas»).

Turkman tilida: Ala başly geçiýmçe gelmez maña.

Başyňdaky tuwulgana öwünýärmisiň? («Go'ro'g'li»)

Ko'rish bilan bog'liq turg'un o'xshatishlar dostonlarning asosiy qismini tashkil etadi, chunki inson ayniqsa ko'z bilan ko'rgan narsalarni ko'p kuzatadi.

Sezgi bilan bog'liq semantik guruhning yana bir ko'rinishi bu eshitish bilan bog'liq turg'un o'xshatishlardir. Bu tipdagi turg'un o'xshatishlar ham ko'p uchraydi. Tovush, ovozni boshqa bir narsa yoki hodisalar bilan taqqoslab, shu narsaning ichki xislatlarini ochib beradi. Eshitish bilan bog'liq turg'un o'xshatishlarda tashqi muhitdagi turli ovozlarning insonning ichki tuyg'ulari bilan qiyoslanadi.

O'zbek tilida: Men ketarman yorim izlab,
Bu jarohat bag'rim tuzlab,
Yolg'izman, bo'taday bo'zlab,
Bobom Qultoy, xush qol endi. («Alpomish»).

Qoraqalpoq tilida: Sultanım dep Máspatsha,
Botaday bozlap jiladi. («Máspatsha»).

Qozoq tilida: Аюдай ақырып алысып жүр,
Бұрынғы сиынысып бабасына. («Rustem»).

Qirg'iz tilida: Нардай боздоп, каңгырап,
Ай талаада Жакып бай Мендибайлап заңгырап,
Кыйкырыгы баш жарып Кырдап келет бай Жакып,
Кызылдай жанын бу күндө Кыйнап келет бай Жакып.
(«Manas»).

Turkman tilida: *Gün ýaly ýyldyrady, deňiz ýaly joşdy, tolkun atdy, tokaý ýaly garaldy. Yt üzmeqli, keçe bürükli, azgyn dinli, guzgun dilli duşman çyka geldi.* («Go‘ro‘g‘li»).

Har qanday ovoz to‘laligicha voqeani bayon qila olmasa ham, obrazning ichki kechinmalarini biroz bo‘lsada tavsiflay oladi. Eshitish bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlarda ma‘no predmetning ichki kechinmalari orqali aniqlanadi.

Qoraqalpoq, qozoq, o‘zbek, qirg‘iz tillarida hayvonlar ovozlariga asoslanib turg‘un o‘xshatishlar yasalgan bo‘lsa, turkman tilida tabiat bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlar hosil bo‘lgan.

Eshitish bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlar ichki semantik guruhlarga ajratib o‘rganildi:

1) umumiylik bilan bog‘liq;

2) bir shaxs bilan bog‘liq.

1. Umumiylik bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlarning ko‘p qismi hayvonlar bilan qiyoslash natijasida paydo bo‘lgan.

Masalan:

O‘zbek tilida: Vedovlari dirkillab,
olg‘ir qushdayin charqillab,
Qo‘l nayzasi soyqillab. («Alpomish»).

Qoraqalpoq tilida: Bala-shag‘a hawlig‘ip,
Bólingen qoyday shuwlasti. («Gúlnáhár»).

Qozoq tilida: Қаладан шығып көп қыпшақ,
Қойдай маңырап шуылдан. («Batırlar jırı»).

Qirg‘iz tilida: Тууда турган калмактар,
Жамгырдай кылып жар тартты.
Мөндүрдөй кылып ок атты.
Мөндүлөтүп калмакты

Turkman tilida: *Depe gibi et ýyg!Göl gibi kymyz sagdyr!* («Gorkut ata»).

2. Bir shaxs bilan bog‘liq.

O‘zbek tilida: Boybichalarga shunda to‘lg‘oq vaqti yaqin etdi; ne kampirlar kelib, boybichani aylanib, tulkini *inlatgan toziday bo‘lib*, boybichalarni angrib, o‘rtaga olib turibdi. («Alpomish»).

Qoraqalpoq tilida: *Atqan toptay gu‘rp etti,*
Ayne tawg‘a tiygendey,
Yoqsa tawg‘a tiygendey,
Oq serpilip ol qaytti. («Máspatsha»).

